

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ BD 42
2025 yil 29 avgust



**JAHON GEOGRAFIYASI FANINING
O'QUV DASTURI**
(kunduzgi, kechki)

Bilim sohasi:	500 000 - Tabiiy fanlar, matematika,
Ta'lim sohasi:	530 000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530200 – Geografiya

2

Fan/modul kodi JC23345620		O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	ECTS – Kreditlar III 4 IV 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili o'zbek		Haftadagi dars soatlari III 4 IV 4	
1.	Fan nomi`		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
	Jahon geografiyasi		III 20/30 IV 20/30	III 70 IV 70	III 120 IV 120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad yer yuzasidagi materiklar va okeanlarning tabiatini, unda sodir bo'ladigan jarayonlar va hodisalarning o'zaro bir-biriga bog'liqligini, geografik qobiqning barqaror rivojlanish qonuniyatlarini bo'yicha talabalarga bilimlar berish xamda tegishli kunikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - Quydagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> Jahon geografiyasining maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti, tadqiqot usullari, rivojlanish tarixi, uning kelajak istiqbollari, tabiatini muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan samarali foydalanish usullarini o'rganish; Jahon geografiyasi tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarining aloqadorlik qonuniyatlarining bir-biriga uzviy bog'liqligini tushuntirish, kursda tabiiy-geografik rayonlar tushunchasiga aloxida e'tibor berish; Jahon geografiyasi kursida materiklar va okeanlarning tabiiy geografik o'rni, relyefi va uning shakllari, iqlimi va iqlim mintaqalari, iqlimiga ta'sir ko'rsatuvchi omillari, ichki suvlari tarkibidagi ko'llar, daryolar, suv omborlari, yer osti va yer usti suvlari, tabiat zonalari, okeanlarda shakllangan arxipelaglar, orollar va ularning turlari, yarim orollar, qo'ltiq va bo'g'izlar, dengizlar va tabiiy geografik rayonlashtirish to'g'risida to'liq ma'lumot berish. 				
	<p align="center">II. Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p align="center">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p align="center">I-MODUL. AFRIKA MATERIGI</p> <p align="center">Kirish. Fanning predmeti, maqsad va vazifalari,</p> <p>O'rganish ob'yekti. Materiklar, qitalar, orollar, yarim orollar, okeanlar, dengizlar, qo'tiqlar, bo'g'izlar xaqida umumiy tushuncha. Yer yuzi litosfera pitalari.</p> <p align="center">Afrika materigi geografik o'rni, okean qismlari, chekka nuqtalari. Tektonikasi. Afrika materigi relyefi.</p> <p>Afrika materigining geografik joylashishi, okean va dengizlar oqimlarining ta'siri. Materik atrofidagi orollar va yarim orollar, bo'g'izlar va qo'tiqlar. Materiklarning chekka nuqtalari. Afrika materigining Gondvanadan ajralib chiqqan davri va shu davrdagi relyef tuzilishi,</p> <p align="center">Afrika materigi iqlimi. Afrika materigi ichki suvlari.</p> <p>Iqlimi. Iqlim xosil qiluvchi omillari. Atmosfera xarakterlarining asosiy xususiyatlari. Yoz va qish oylari iqlimi, xarorat, namlik va yog'inning taqsimlanishi. Iqlim mintaqalarining takrorlanishi (ekvatorial mintaqadan tashkari).</p> <p align="center">Afrika materigining tabiat mintaqalari, rayonlashtirish.</p> <p>Materik iqlimiga xos tabiat mintaqalarining joypashishi, o'simlik, xayvonot olami va tuproq qoplami. Usulligining asosiy turlari, ularning xosil bo'lish omillari, tarqalish qonuniyatlari. Floristik va faunistik oblastlari. Tuproqlar va ularning xosil bo'lish jarayoni. Cho'llanish muammosi va uni yechish yo'llari. Asosiy mintaqalari va zonalari. Ularning ekvatorning xar</p>				

ikki tomonida takrorlanishi, tavsifi

Avstraliya materigi geografik o'rni okean qismlari, chekka nuqtalari. Tektonikasi.

Avstraliya materigi relyefi.

Avstraliya materigining geografik joylashishi, okean va dengizlar oqimlarining ta'siri, materik atrofidagi orollar va yarim orollar, bo'g'izlar va qo'ltiqlar. Materiklarning chekka nuqtalari. Janubiy yarim sharda joylashganligi, Ulchamlari, uziga xos xususiyatlari. Tarkib topish tarixi. Avstraliya materigining Gondvanadan ajralib chiqqan davri va shu davrdagi relyef tuzilishi, Materik platformalarining xosil bo'lishi, tektonik xarakatlar natijasida hosil bo'lgan relyef shakllari.

Avstraliya materigi iqlimi, Avstraliya materigi ichki suvlari

Materik iqlimining o'ziga xos xususiyatlari, iqlimga ta'sir qiluvchi omillar, iqlim mintaqalariga tavsif va ularning iqlim o'lkalariga ajralish sabablari, okean va dengizlarning materik iqlimiga ta'siri. Materikdagi atmosfera xarakatlarining markazlari. Namlik va yoruqlikning notekis taksimlanishi.

Avstraliya materigining tabiat mintaqalari .Avstraliya materigini tabiiy geografik rayonlashtirish

Materik iqlimiga xos tabiat mintaqalarining joylashishi, o'simlik, xayvonot olami. Turlarga kambag'alligi. Sodda sut emizuvchilarning ko'pligi. Ko'p sutemizuvchi xayvonlarning xaltasyimonligi. Geografik mintaqalari va zonalar. Tropik mintaqalari landshaftlarining tarqalganligi. Tuprok qoplamining o'zgarishi, mavjud tabiat mintaqalariga umumiy tavsif. Boshqa materiklar tabiat mintaqalari bilan taqqoslash.

Okeaniya

Geografik joylanishi. Tabiatining asosiy qirralari. Okean ta'siridagi landshaftlarning keng tarqalganligi. Geologik tuzilishi va relyefi. Mezozoy va Kaynazoy burmalanish mintaqalari. Vu'lqanlarning otilishi. Meloneziya, Mikroneziya va Poloneziya orollarining hosil bo'lishi. Tropik mintaqalarda okean sathining o'zgarishi va marjon orollarining xosil bo'lishi. Asosiy relyef shakllari. Foydali qazilmalari. Xavo massalari va ularning harakati, xarorat, yoginlar, tropik siklonlar. Daryolar va ularning xususiyati. Ko'llari, Yer osti suvlari. Tuproq, o'simlik va xayvonot dunyosi. Nam tropik mangra o'rmonlari. Savannalar. Xayvonot dunyosining uziga xos xususiyatlari. Tabiiy geografik O'lkalari: Melaneziya, Mikroneziya, Poloneziya va Yangi Zelandiya va ularning tabiiy geografik tavsifi.

Antarktida materigi tabiati, materik kashf etilishi, geografik urni va okean qismlari.

Janubiy qutub doirasida joplashgan yagona materik. Tabiatining asosiy qirralari, o'lchamlari. Shakllanish Antarktida materigi Urganish tarixi. Paleozoy burmalanish mintaqasi. Muz usti va osti relyefi. Muzning alinligi, muzning turlari, shelf muzliklari. «Voxalar»

Antarktida materigi iqlimi, o'simlik va xayvonot dunyosi.

Materik iqlimi. Iqlimining o'ziga xos xususiyatlari. O'simlik hayvonot dunyosi. G'arbiy Antarktida, Sharqiy Antarktida, ularning tabiiy geografik tavsifi.

Janubiy Amerika materigi geografik o'rni, qismlari, orollari va chekka nuqtalari,

Janubiy Amerika materigi tektonikasi. Janubiy Amerika materigi relyefi

Janubiy Amerika materigining geografik joylashishi, tabiatining asosiy qirralari, okean va dengizlar oqimlarining ta'siri, materik atrofidagi orollar va yarim orollar, bo'g'izlar va qo'ltiqlar. Materikning chekka nuqtalari. O'rganilish tarixi.

Janubiy Amerika materigi iqlimi. Janubiy Amerika materigi ichki suvlari

Iqlim xususiyatlari. Iqlim xosil qiluvchi omillari. Relyefning materik iqlimini hosil bo'lishidagi o'rni va ahamiyati. Yoz va qish oylari iqlimlarining o'ziga xos xususiyatlari. Xarorat, yog'in va

namlikning taqsimlanishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'ri. Okean va dengizlarning materik iqlimiga ta'siri.

Janubiy Amerika materigining tabiat mintaqalari. Janubiy Amerika materigini tabiiy geografik rayonlashtirish

Materik iqlimiga xos tabiat mintaqalarining joylashishi, o'simlik, hayvonot olami va tuprok qoplaminig o'zgarishi, mavjud tabiat mintaqalariga umumiy tavsif. Boshqa materiklar tabiat mintaqalari bilan taqqoslash. Tuprok turlari, zoogeografik oblastlari. Geografik mintaqalari va zonalari. And tog'lardagi balanddik mikrokallari

Shimoliy Amerika materigi geografik o'rni, okean qismlari, orollari va chekka nuqtalari, Shimoliy Amerika materigi tektonikasi, relyefi.

Tabiiy geografik xususiyatlari. O'rganish tarixi. Materikning tarkib topishidagi asosiy bosqichlar. Shimoliy Amerika materigining geografik joylashishi, okean va dengizlar oqimlarining ta'siri, materik atrofidagi orollar va yarim orollar, bo'g'izlar va qo'ltiqlar. Materikning chekka nuqtalari.

Shimoliy Amerika materigi iqlimi, Shimoliy Amerika materigi ichki suvlari

Materik iqlimi. Iqlimni hosil qiluvchi omillari. Relyefning materik iqlimini hosil bo'lishidagi o'rni va ahamiyati. Yoz va qish oylari iqlimlarining uziga xos xususiyatlari. Xarorti, yog'in va namlikning taqsimlanishi. Okeanlarning materik iqlimiga tasiri. Iqlimning fasllar bo'yicha almashinishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'ri.

Shimoliy Amerika materigining tabiat mintaqalari. Shimoliy Amerika materigini tabiiy geografik rayonlashtirish.

Materik iqlimiga xos tabiat mintaqalarining joylashishi, o'simlik, hayvonot olami va tuprok qoplaminig o'zgarishi, tabiat mintaqalariga umumiy tavsif bersh, boshqa materiklar tabiat mintaqalari bilan taqqoslash. Usimliklarning kelib chiqish markazlari va hozirgi o'simlik qoplaminig hosil bo'lishi. Milliy bog'lar, qo'riqxonalar va alohida qo'riqlanadigan xududlar.

Yevrosio materigi geografik o'rni, okean qismlari, orollari va chekka nuqtalari, tektonikasi, relyefi,

Materikning asosiy xususiyatlari, maydonining kattaligi, shimoldan janubga cho'zilganligi va shimoliy yarim shardagi barcha geografik mintaqalarning namoyon bo'lganligi. Okean va dengizlar oqimlarining ta'siri, materik atrofidagi orollar va yarim orollar, bo'g'izlar va qo'ltiqlar to'g'risida ma'lumot beriladi, materikning chekka nuqtalari.

Yevrosiyo materigi iqlimi, ichki suvlari, tabiat mintaqalari

Materik iqlimining o'ziga xos xususiyatlari, iqlimga ta'sir qiluvchi omillar, iqlim mintaqalariga tavsif va ularning iqlim O'lkalariga ajralich sabablari, okean va dengizlarning materik iqlimiga ta'siri. Iqlim hosil qiluvchi omillari. Mo'tadil va subtropik mintaqalarning g'arbiy okean bo'yi sektorida joylashganligi. Dengiz iqlimining g'arbiy shamollar ta'sirida ekanligi.

Yevrosiyo materigini tabiiy geografik rayonlashtirish

Materikni rayonlashtirishning asosiy sabablari. TGRlar tarkibidagi o'lkalarning ajralishi va ularning tavsifi, region o'lkalarga qiyosiy tavsif. TGRning geografik o'rni, relyefi, iqlimi ichki suvlari, organik dunyosiga tavsif. Tabiiy geografik rayonlar Arktika va subarktikaning Yevrosiyo sektori, Shimoliy Yevropa, G'arbiy Yevropa, O'rta dengiz sohili, Old Osiyo togligi va Kavkaz, Garbiy Osiyo, Shimoliy Osiyo, Markaziy Osiyo, Baland Osiyo, Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubiy-Sharkiy • Osiyo. Ularning geografik tavsifi

DUNYO OKEANI

Tinch okeani, Atlantika okeani, Hind okeani, Shimoliy Muz okeani

Tinch okeannining geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, resurslari. Okean osti relyefining tuzilishi. Relyef shakllari. Suv osti tizmapari, botiqlar, cho'kmalar. Atlantika okeanining geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari. Okeanlar suv osti relyefining tuzilishi. Relief shakllari. Suv

	<p>osti tizmalari, botiqlar, cho'kmalar. Atlantika okeanining materiklarga ta'siri. Hind okeanining geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, resurslari. Okean osti relyefining tuzulishi. Relyef shakllari. Suv osti tizmalari, botiqlar, cho'kmalar. Hind okeanining materiklarga ta'siri. Hind okeani iqlimi. Shimoliy Muz okeanining geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari. Okeanlar suv osti relyefining tuzilishi. Relyef shakllari. Suv osti tizmalari, botiqlar, cho'kmalar. Shimoliy muz okeanining materiklarga ta'siri</p>
	<p style="text-align: center;">III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yichako'rsatma va tavsiyalar. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <p style="text-align: center;">JAHON GEOGRAFIYASI</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Yer yuzi tabiiy kartasi. Yer yuzi lutosfera plitalari 2. Afrika materigi geografik o'rni, okean qismlari, chekka nuqtalari. Tektonikasi. Afrika materigi relyefi. 3. Afrika materigi geografik o'rni, okean qismlari, chekka nuqtalari. Tektonikasi. Afrika materigi relyefi. 4. Afrika materigi iqlimi. Afrika materigi ichki suvlari. 5. Afrika materigining tabiat mintaqalari, rayonlashtirish. 6. Avstraliya materigi geografik o'rni okean qismlari, chekka nuqtalari. Tektonikasi. Avstraliya materigi relyefi. 7. Avstraliya materigi iqlimi, Avstraliya materigi ichki suvlari 8. Avstraliya materigining tabiat mintaqalari .Avstraliya materigini tabiiy geografik rayonlashtirish. 9. Okeaniya. 10. Antarktida materigi tabiati, materik kashf etilishi, geografik urni va okean qismlari. 11. Antarktida materigi iqlimi, o'simlik va xayvonot dunyosi. 12. Janubiy Amerika materigi geografik o'rni, qismlari, orollari va chekka nuqtalari, Janubiy Amerika materigi tektonikasi. Janubiy Amerika materigi relyefi 13. Janubiy Amerika materigi iqlimi. Janubiy Amerika materigi ichki suvlari 14. Janubiy Amerika materigining tabiat mintaqalari. Janubiy Amerika materigini tabiiy geografik rayonlashtirish 15. Shimoliy Amerika materigi geografik o'rni, okean qismlari, orollari va chekka nuqtalari, Shimoliy Amerika materigi tektonikasi, relyefi. 16. Shimoliy Amerika materigi iqlimi, 17. Shimoliy Amerika materigi ichki suvlari 18. Shimoliy Amerika materigining tabiat mintaqalari. 19. Shimoliy Amerika materigini tabiiy geografik rayonlashtirish. 20. Yevrosio materigi geografik o'rni, okean qismlari, orollari va chekka nuqtalari, tektonikasi, relyefi, 21. Yevrosiyo materigi iqlimi, 22. Yevrosiyo materigi ichki suvlari, 23. Yevrosiyo materigi tabiat mintaqalari 24. Yevrosiyo materigini tabiiy geografik rayonlashtirish 25. Yevrosiyo materigini tabiiy geografik rayonlashtirish 26. Yevrosiyo materigini tabiiy geografik rayonlashtirish 27. Tinch okeani 28. Atlantika okeani 29. Hind okeani 30. Shimoliy Muz okeani <p style="text-align: center;">IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi: - esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;</p>

- ma'ruzalar tayyorlash;
- glossariy tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- bir javobli testlar tuzish;
- ko'p javobli testlar tuzish;
- rasmi topshiriqlar tuzish;
- muammoli savollar to'plamini tuzish;
- Klaster tuzish;
- SWOT tahlili;
- WENN diagrammasini tuzish;
- yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Mavzuga oid ma'lumotlarni jadval ko'rinishiga keltirish;
- Nostandart test tuzish;
- "Tushunchalar tahlili" jadvalini tuzish;
- Mavzuga oid savollar to'plamini tayyorlash;
- PIZA topshiriqlarini tuzish;
- referat tayyorlash;
- taqdimot yaratish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

1. Materiklarning geografik o'rni okean qismlari, chekka nuqtalarining o'ziga xosligi, foydali qazilmalari
2. Materiklar tektonikasi, tekshirilish tarixi
3. Materiklar relyefi, orografiyasi
4. Materiklar iqlimi, iqlim xosil qiluvchi omillari
5. Materiklar gidroografiyasi
6. Materiklarning tabiat mintaqalari (tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi)
7. Materiklarni tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari, O'lkalariga qiyosiy tavsif
8. Dunyo okeani (Tinch, Atlantika, Hind, Shimoliy Muz) tabiatiga tavsif.
9. Mo'tadil iqlim mintaqasi tabiat zonolari
10. Subtropik iqlim mintaqaning tabiat zonasi
11. Afrika va Amerika qitasining o'xshashliklari, farqlari
12. Ekvatorial O'rmonlar zonasi tarqalgan materiklar tavsifi
13. Materiklarda shakllangan balandlik mintaqalari
14. Dunyo okeani suvlarining ifloslanish manbalari
15. Afrika materigida tarqalgan cho'llar tavsifi
16. And tog'lari orografik xususiyatlari
17. Baland Osiyo tog'laridagi balandlik mintaqalari
18. Materiklardagi aloxida muhofaza qilinadigan hududlar
19. Iqlim mingakalariga xos ravishda tabiat zonalarining tarqalishi
20. Materiklar tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish
21. Dunyo okeani suv osti relyefi xususiyatlari
22. Dunyo okeani organik dunyosi, ularni muhofaza qilish masalalari
23. Materiklar tabiat zonalarining bir-biridan Farqi
24. G'arbiy va Sharqiy yarim sharlarda joylashgan materiklarga qiyosiy tavsif
25. Materiklarning o'rganilish tarixi
26. Materiklar iqlimiga ta'sir kurtuvchi omillar
27. Materiklar tabiiy-geografik rayonlariga qiyosiy tavsif
28. Dunyo okeanining o'rganilish tarixi.

	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p style="text-align: center;">Talaba bilishi kerak:</p> <p>Talabalarga iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir etadigan asosiy omilari bo'yicha, darslik, o'quv qo'llanmalar va mahsus adabiyotlardan bilim egallash jarayonida foydalana bilishlari, o'quv ko'rgazmali vositalar harita, atlas kabilarni o'qiy bilish va ulardan foydalana bilishlari, statistik ma'lumotlardan foydalana bilish, ularni tahlil qila bilishlari, jadval kartagrafik, karta-diagrama materiallaridan foydalana bilishlari va ularni tayorlay bilishlari va baholash malakalariga ega bo'lishi kerak.</p>
	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • <i>ma'ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara</i> • <i>interfaol keys-stadilar;</i> • <i>diologik yondoshuv</i> • <i>SWOT tahlili</i> • <i>Wenn diagrammasi</i> • <i>Bliz so'rov</i>
	<p style="text-align: center;">VII. Kreditni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.</p>
	<p style="text-align: center;">VIII. Asosiy adabiyotlar:</p> <p>1.Хасанов И., Фуломов П.Н., Қаюмов А. Ўзбекистон табиий географияси (2-қисм). Ўқув қўлланма.-Т.: Университет, 2010.</p> <p>2.Хасанов И., Фуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси (1-қисм). Ўқув қўлланма.-Т.: Ўқитувчи, 2007.</p> <p>3. Хасанов И. Ўзбекистон табиий географияси (маърузалар матни).-Т., ЎЗМУ, 2000.</p> <p>4.Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Т., Ўқитувчи, 1996.</p>
	<p style="text-align: center;">IX. Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <p>5. Акрамов З.М., Рафиков А.А. Прошлое, настоящее и будущее Аральского моря.-Т., 1990.</p> <p>6. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А., Зокиров Ш.С. Агроклиматические условия сельского хозяйства Узбекистана.-Т.: Мехнат, 1975.</p> <p>7.Солиев А. Ўзбекистон географияси.-Т.:Университет, 2014.</p> <p>8. Солиев А ва бошқалар Минтақавий иқтисодиёт. –Т., 2003.</p> <p>9. Бабушкин Л.Н, Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекской ССР. Труды ТашГУ. Нов.серия. вып 231. Географические науки, кн.27. –Т., 1964.</p> <p>10. Богданов О.П. Животные Узбекистана.-Т.: Ўқитувчи, 1975.</p> <p>11. Мўминов А. ва бошқалар. Ўзбекистон табиий географияси. -Т.: Ўқитувчи, 1984.</p> <p>12. «1988-2008 йилларда Ўзбекистон Республикасида атроф-муҳит ва табиий ресурслардан фойдаланишнинг ҳолати тўғрисида Миллий маъруза». -Т., 2009.</p> <p>13. Хасанов И.А., Фуломов П.Н. Ўрта Осиё табиий географияси.-Т.: Университет, 2002.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari:</p> <p>1. http://www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.</p> <p>2. http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.</p> <p>3. www.pedagog.uz</p> <p>4. www.apkpro.ru/content/view</p> <p>5. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten</p> <p>6. www.relarn.ru/conf/conf2007</p> <p>7. http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/</p> <p>8. http://www.allmath.ru/</p> <p>9. http://www.ziynet.uz/</p>

	<p align="center">Axborot manbalari:</p> <p>10. http://www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.</p> <p>11. http://www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.</p> <p>12. www.pedagog.uz</p> <p>13. www.apkpro.ru/content/view</p> <p>14. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten</p> <p>15. www.relam.ru/conf/conf2007</p> <p>16. http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/</p> <p>17. http://www.allmath.ru/</p> <p>18. http://www.ziyouet.uz/</p> <p>19. http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru</p> <p>20. https://t.me/geograflar_kutubxonasi</p>
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2025 yil "____" _____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:</p> <p>Xujaqulov.S.Sh – Samarqand davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrasida assistenti.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>F.A.Xamroyeva – Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasida dotsenti</p> <p>B.B.Eshqovatov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Geografiya va ekologiya kafedrasida dotsenti (tashqi)</p>

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 94 o'rinni egallagan Moskva davlat universitetning geografiya fakulteti Geografiya yo'nalishi "Физическая география материков и океанов" dasturi tahlil qilinib ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi.

"Jahon geografiya" fanining dasturi tayyorlanib 9 ta mavzusi yangilandi

[https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_fgm_v_ok_2021.p](https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_fgm_v_ok_2021.pdf)

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetning 2025-yil 6-fevraldagi 9-f sonli farmoyish bilan tuzulgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

Tuzuvchi:

S.Sh.Xujaqulov

Kafedra mudiri:

F.A.Xamroyeva

Fakultet dekani:

U.M.Mirzayev

O'quv-ishlar bo'yicha prorektor:

N.H.Musulmonov



**Samarqand davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrası assistenti
S.Sh.Xujaqulov tomonidan tayyorlangan “Jahon geografiyasi” o‘quv fan
dasturiga
TAQRIZ**

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalaridagi islohotlar ta’lim tizimida ham yangidan yangi izlanishlarni taqozo etmoqda. Xususan, respublikamizda xorijiy adabiyotlarni o‘rganish va ularni respublika oliy ta’lim tizimida joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada “Geografiya” fanida ham salmoqli o‘zgarishlar, yangilanishlar ro‘y berdi.

“Jahon geografiyasi” fani geografiya asosiy yo‘nalishining nazariy va amaliy evolutsiya natijasi, ya’ni “Jahon geografiyasi” fanining rivojlanishi uning turli davrlarda umumiy fan sifatida nomining o‘zgarishiga sabab bo‘lgan: Insoniyat hamma sohalarida bu sohada keng foydalanib kelmoqda. Ushbu fan rivojlanishi bevosita ahborot texnologiyalari bilan bevosita bog‘liq. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarda tabiiy geografiya fani rivojlanib, har sohada foydalanilib rivojlanib kelinmoqda. Ayniqsa hozirgi globallashtgan axborot texnologiyalari asrida bu soha yanada rivojlanmoqda. Jahon geografiyasi – geografiya fanlari tizimida inson ho‘jalik faoliyatida bevosita foydalanadigan fan hisoblanadi. Ushbu fanlar qanday nomlanmasin uning mazmun mohiyati ahamiyatligi o‘zgarmaydi. Shu sababdan bu fanni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Mazkur fan dasturi “Jahon geografiyasi” kursining nazariy asoslarini to‘liq qamrab olgan va har bir mavzu bo‘yicha talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar keltirib o‘tilgan bo‘lib, dasturning amaliy mashg‘ulot qismi bakalavrlarning nazariy jihatdan egallagan bilimni amaliy mustahkamlashga qaratilgan mavzularni o‘z ichiga oladi. Berilgan metodik tavsiyalar amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim topshiriqlarini tashkil etish va o‘tkazish talablariga javob beradi.

Ushbu fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60530200 – Geografiya yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan dasturni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

Samarqand davlat pedagogika instituti
“Geografiya” kafedrası mudiri



dots. F.A.Xamroyeva

**O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Geografiya” kafedrası assistenti
S.Sh.Xujaqulov tomonidan tayyorlangan “Tabiiy geografiya” o‘quv fan dasturiga**

TAQRIZ

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalaridagi islohotlar ta’lim tizimida ham yangidan yangi izlanishlarni taqozo etmoqda. Xususan, respublikamizda xorijiy adabiyotlarni o‘rganish va ularni respublika oliy ta’lim tizimida joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada “Geografiya” fanida ham salmoqli o‘zgarishlar, yangilanishlar ro‘y berdi.

“Tabiiy geografiya” fani geografiya asosiy yo‘nalishining nazariy va amaliy evolutsiya natijasi, ya’ni “Tabiiy geografiya” fanining rivojlanishi uning turli davrlarda umumiy fan sifatida nomining o‘zgarishiga sabab bo‘lgan: Insoniyat hamma sohalarida bu sohada keng foydalanib kelmoqda. Ushbu fan rivojlanishi bevosita ahborot texnologiyalari bilan bevosita bog‘liq. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarda tabiiy geografiya fani rivojlanib, har sohada foydalanilib rivojlanib kelinmoqda. Ayniqsa hozirgi globallashgan axborot texnologiyalari asrida bu soha yanada rivojlanmoqda. Tabiiy geografiya–geografiya fanlari tizimida inson ho‘jalik faoliyatida bevosita foydalanadigan fan hisoblanadi. Ushbu fanlar qanday nomlanmasin uning mazmun mohiyati ahamiyatligi o‘zgarmaydi. Shu sababdan bu fanni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Mazkur fan dasturi “Tabiiy geografiya” kursining nazariy asoslarini to‘liq qamrab olgan va har bir mavzu bo‘yicha talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar keltirib o‘tilgan bo‘lib, dasturning amaliy mashg‘ulot qismi bakalavrlarning nazariy jihatdan egallagan bilimini amaliy mustahkamlashga qaratilgan mavzularni o‘z ichiga oladi. Berilgan metodik tavsiyalar amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim topshiriqlarini tashkil etish va o‘tkazish talablariga javob beradi.

Ushbu fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan dasturni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

**SamDU “Geografiya va
tabiiy resurslar” kafedrası dotsenti**



B.B.Eshquvvatov